

PAPER

TARIXIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA O'YIN TEXNALOGIYALARI

Ahmadov Olimjon Shodmonovich^{1,*} and Jo'rayeva Nigina Shuxratjon qizi¹

¹p.f.f.d (PhD), dotsent and ² Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti

*jurayevanigina0104@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada tarixiy tafakkurni shakllantirish jarayonida zamонави о'йн texnologiyalarining tutgan о'rni va ularning ta'limgadi samaradorligi chuqr tahlil qilinadi. Xususan, o'quvchilarida tarixiy bilimlarni egallash, tarixiy jarayonlarni anglash va ularni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishda interfaol va o'yin asosidagi metodlarning imkoniyatlari yoritib beriladi. O'yin texnologiyalariga asoslangan yondashuvlar – bular simulatsiya, rolli o'yinlar, interaktiv elektron platformalar orqali tashkil etiladigan dars shakllari – o'quvchilarida tarixga bo'lgan qiziqishni kuchaytirib, mavzularni chuqurroq o'zlashtirishlariga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bu turdag texnologiyalar o'quvchilarining ijodiy fikrashi, mustaqil qaror qabul qilish va tarixiy voqealarga nisbatan faol pozitsiyada bo'lish kabi kompetensiyalarini rivojlantiradi. Maqolada tarixiy tafakkurni shakllantirishda o'yin metodlarning innovatsion usul sifatida qo'llanishi, ularning pedagogik va didaktik afzallikkari, shuningdek, ta'lim jarayoniga integratsiyalash tajribalari ilmiy asosda bayon etiladi. Ushbu maqolada o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari keng yoritilib, tarixiy tafakkurni shakllantirishdagi roli bo'yicha aniq metodik tavsiyalar ham beriladi. Mazkur yondashuvlar zamонави ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri sifatida taqdirm etiladi.

Key words:

tarixiy tafakkur, o'yin texnologiyalari, boshlang'ich ta'lism, interfaol metodlar, tarixiy empatiya, rolli o'yinlar, tarixiy ong, didaktik vosita, tanqidiy fikrash, ijodiy yondashuv, tarixiy bilim, simulyatsiya, pedagogik innovatsiya, muloqot ko'nikmalar, metodik yondashuv

Kirish

Bugungi globalashuv jarayonida bizning eng muhim vazifalarimizdan biri – boshlang'ich sinf o'quvchilarini intellektual salohiyati, ma'naviy yetukligi va ijodiy tafakkuri bilan bo'lajak Renessans davriga munosib shaxslar sifatida tarbiyalashdan iboratdir.Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev o'z nutqlaridan birida ta'kidlaganidek: "Biz maktabgacha ta'lism va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarini bo'lajak Renessansning to'rt uzviy halqasi deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni deb hisoblaymiz."

Shu yuksak maqsadni amalga oshirishda esa, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarixiy tafakkurni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki tarixiy tafakkur bolalarda o'z millati, ajdodlari merosi, qadriyatları va buyuk shaxslarining

ibratli hayoti haqida chuqr tushuncha hosil qilishga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat ularning ilmiy-intellektual salohiyatini oshiradi, balki ularni vatanparvar, ma'naviy barkamol, ongli va mas'uliyatlari avlod sifatida tarbiyalashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Demak, tarixiy tafakkur — bo'lajak Renessans avlodining dunyoqarashi va fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi mustahkam poydevordir.

Avvalo tarixiy tafakkur tushunchasini tahlil qilsak, Tarixiy tafakkur ongli, tajribali va bilimli ichki "stimul-vositalar" ning mahsulidir. Mohiyatan "tafakkur - ob'eaktiv olam in'ikosining oliy shakli, tushunchalar, nazariyalar, narsa va hodisalarining muhim bog'lanish va aloqalarini aks ettirish, yangi nazariyalar, g'oyalar yaratish, bo'lajak jarayonlarni bashorat qilish kabilarda namoyon bo'ladigan faol jarayondir". Tarixiy tafakkur esa inson ongida o'tmish voqealarini, tarixiy jarayonlarni, shaxslar faoliyatini va ularning bugungi kun bilan bog'liqligini tushunishga, ulardan xulosa chiqarishga va kelajakni anglashga xizmat qiladi.

Bu tafakkur turi orqali inson jamiyat rivojlanishining

bosqichlarini, tarixiy saboq va tajribalarni tahlil qiladi, muayyan davrlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni anglaydi. Tarixiy tafakkur nafaqat ilmiy izlanishlar, balki shaxsiy hayotiy qarorlar qabul qilishda ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, bu tafakkur turi tarixiy bilimlar asosida shakllanadi, tarixiy ong va xotiraning yuksak darajada bo'lishini talab etadi. Tarixiy tafakkurni shakllantirish uchun esa bizga turli metodlar, interfaol o'yinlar, zamonaviy o'yinlar yordam beradi.

Asosiy qism

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarixiy tafakkurni shakllantirish uchun o'yin texnologiyalari juda samarali vosita hisoblanadi. Chunki o'yin orqali bola o'rganayotgan tarixiy faktlarni jonli tasavvur qiladi, fikrlaydi va voqealarni izchil tahlil qiladi. Quyida o'yin texnologiyalariga asoslangan ayrim usullarni tahlil qilib chiqsak:

1.Tarixiy Jumboqlar ("Puzzle") - diqqat va tarixiy tasavvurni rivojlantiruvchi o'yin

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga va tarixiy tafakkurni shakllantirishga yo'naltirish maqsadida interaktiv o'yinlardan samarali foydalanish mumkin. Shunday o'yinlardan biri bu — "Tarixiy jumboqlar"(puzzle) o'ynidir. Ushbu o'yinda o'quvchilarga tarixiy suratlар, xaritalar yoki madaniy obidalarni tasviri parchalanib beriladi. O'quvchilar esa ularni to'g'ri tartibda joylashtirib, umumiy rasm yoki manzara hosil qilishi kerak bo'ladi. Masalan, Amir Temur haykalining surati, qadimgi Buxoro xaritasi, Ko'hna Urganchdagi tarixiy yodgorliklar yoki boshqa milliy meros obyektlarining suratlari parchalarga bo'linib, sinf ishtirokchilariga taqdim etiladi. Har bir guruh yoki o'quvchi ushbu parchalarni yig'ib, rasmi to'liq holatga keltiradi.

Rasmni yig'ish jarayonida o'quvchi tafakkur qiladi, e'tiborini har bir detalga qaratadi.Tarixiy obrazlar mustahkamlanadi – O'yin orqali Amir Temur, Ulug'bek, Sohibqiron davri arxitekturasi, geografik joylashuvlar kabi tarixiy ma'lumotlar o'quvchi xotirasida yorginroq saqlanadi. Ko'rgazmalilik tamoyili amalga oshadi – O'quvchi vizual obraz orqali tarixni o'rganadi, bu esa mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Hamkorlik va jamoaviy ish ko'nikmasi shakllanadi – Guruh bo'lib ishslash orqali o'quvchilar o'zaro fikr almashadilar, o'z bilimlarini bahan ko'radilar. Shu tariqa, "Tarixiy jumboqlar"o'yini nafaqat o'yin sifatida, balki tarbiyaviy va didaktik vosita sifatida ham o'quv jarayoniga qo'shilsa, darsni qiziqarli va samarali qiladi.

2. "Tarixiy detektiv" o'yini

O'quvchilarni mustaqil fikrlash, tahlil qilish va tarixiy tafakkurini chuqurlashtirishga yo'naltirilgan metodik usullardan biridir. Ushbu o'yinda o'quvchilar kichik guruhlarga bo'linadi va ularga ma'lum bir tarixiy voqeа yoki shaxs haqida "sirli" tarzda faktlar taqdim etiladi. Guruhlar esa ushbu dalillar asosida sirli shaxs yoki voqeani aniqlashga harakat qilishadi. Bu o'yin nafaqat o'quvchilarning tarixiy bilimlarini mustahkamlaydi, balki ularda izlanish, kuzatish va mantiqiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Misol uchun, guruhlarga quyidagi kabi faktlar berilishi mumkin: "Bu shaxs 1336-yilda tug'ilgan, ko'plab yurishlar qilgan, yirik imperiya barpo etgan, Samarqandni poystaxt qilgan..."

Ushbu belgilar asosida o'quvchilar Amir Temur haqida gap ketayotganini aniqlashadi. Bu orqali ular tarixiy shaxslar hayotiga chuqurroq kirib borishadi, faktlar orasidagi bog'liqlikni tushunib, mustaqil xulosa chiqarishadi. O'yin davomida har bir guruh o'z javoblarini asoslab, nima uchun aynan shu shaxs

yoki voqeani tanlaganini tushuntiradi. Bu esa o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantiradi va mulohaza yuritish salohiyatini oshiradi. "Tarixiy detektiv" o'yini orqali tarixiy faktlar oddiy yodlash emas, balki mantiqiy izlanish va qiziqarli topqirlik vositasiga aylanadi. Shuningdek, bu uslub orqali o'qituvchi darsni jonlantiradi, o'quvchilarda tarixiy shaxslar hayotiga nisbatan qiziqish uyg'otadi va ularni chuqurroq tahlil qilishga undaydi. Shunday qilib, "Tarixiy detektiv" o'yini o'quvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirishda ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

3. "Tarix sahnasida"

Tarixiy empatiya va tafakkurni shakllantiruvchi o'yindir. Tarixiy tafakkurni rivojlantirishda sahnalashtirish va rolli o'yinlar katta ahamiyat kasb etadi. "Tarix sahnasida" nomli metodik o'yin o'quvchilarning tarixiy voqealarga nisbatan hissiy munosabatini shakllantirish, ularni o'zga davrga "ko'chirish" orqali chuqur anglash imkonini beradi. Bu o'yinda o'quvchilar guruhlarga ajratiladi va ularga tarixiy shaxslar, voqealar yoki davrlar asosida qisqa roller taqdim etiladi. Ular ushbu rollarni o'zlashtirib, dars davomida sahnalashtirish orqali namoyon qilishadi. Misol sifatida quyidagi sahnalarni keltirish mumkin: – Amir Temurning Keshda tug'ilishi va bolalik yillari; – Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistonga yurishidan avvalgi siyosiy va ruhiy holati; – Mirzo Ulug'bekning madrasasida olib borilgan ilmiy ishlari va u davr ilm-fan muhiti.

Bunday sahnalashtirishlar o'quvchilarning nafaqat tarixiy bilimlarini, balki tarixiy empatiya – ya'ni o'tmishda yashagan insonlarning fikrlari, hissiyotlari va qarorlarini anglash ko'nikmasini rivojlantiradi. O'quvchilar o'zlariga berilgan rolni ijob etish jarayonida tarixiy shaxslarning qiyofasiga kirishga, ularning harakatlari ortidagi sabablarni tushunishga, davr ruhiyatini his qilishga harakat qilishadi. "Tarix sahnasida" o'yini muloqot va jamoaviy ishslash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Har bir guruh o'z sahnasini tayyorlar ekan, tarixiy ma'lumotlarni izlaydi, ularni sahnaga moslashtiradi va ijob elementlarini o'rganadi. Bu esa ularni faol izlanishga, tahlil qilishga, ijodkorlik bilan yondashishga undaydi. Ayniqsa, bu metod o'quvchilarning eslab qolish darajasini oshiradi, chunki ular faktlarni shunchaki o'rganmaydi, balki uni boshdan kechiradilar. Shu sababli, "Tarix sahnasida" o'yini tarix fanini jonlantiruvchi, o'quvchilarning darsdagi ishtirokini oshiruvchi va tarixiy tafakkurni shakllantiruvchi samarali pedagogik vosita sifatida tavsiya etiladi.

4.Vaqt chizig'i o'yini tarixni o'rganishda interaktiv usul

Bu o'yinda o'quvchilarga oldindan tayyorlangan tarixiy sanalar va ularga oid voqealar yozilgan kartochkalar taqdim etiladi. Har bir kartochkada muhim tarixiy sana va u bilan bog'liq voqeа keltiriladi. O'quvchilarning vazifasi esa ushbu kartochkalarni vaqt ketma-ketligiga qarab to'g'ri tartibda joylashtirishdan iborat. Misal, quyidagi kartochkalar berilishi mumkin: • Mil. avv. 6-asr – Zardushtiylik dinining paydo bo'lishi • 1336-yil – Sohibqiron Amir Temurning tug'ilishi • 1483-yil – Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludi • 1865-yil – Toshkentning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi • 1991-yil – O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi O'quvchilar bu sanalarini muhokama qilgan holda, vaqt chizig'iga mos ravishda joylashtiradi. Agar guruhli shaklda o'tkazilsa, har bir guruh o'z versiyasini taqdim etib, boshqa guruhlar bilan solishtirishi, muhokama yuritishi mumkin.

5. "Kim menman?"(Tarixiy shaxsni top)

Bu tarixiy tafakkurni rivojlantiruvchi, bilim va kuzatuvchanlikni talab qiluvchi interaktiv o'yin bo'lib, o'yin ishtirokchilarini o'ziga jalb etadi. Ushbu o'yin tarixiy shaxslarni eslab qolish, ularning hayoti va faoliyatini o'rghanish, tarixiy tafakkurni shakllantirish maqsadida tashkil etiladi.

O'yinda bir ishtirokchi yoki o'qituvchi tarixiy shaxs nomini boshqalarga oshkor qilmasdan, o'zini shu shaxs o'rnida tasvirlaydi – ularning hayoti, yutuqlari, davri yoki mashhur iqtiboslari orqali o'zini tanitishga harakat qiladi. Qolgan ishtirokchilar esa turli savollar orqali ushbu shaxs kimligini aniqlashga urinadilar. Bu savollar ochiq yoki yopiq shaklda bo'lishi mumkin (masalan, "Siz Movarounnahrda yashaganmisiz?", "Siz davlat boshqaruvida bo'lganmisiz?" va hokazo). Javoblar asosida ishtirokchilar taxmin qilishadi va shaxsni topishga harakat qilishadi.

Bu o'yin yoshlar orasida tarixga bo'lgan qiziqishni oshiradi, muloqot madaniyatini rivojlantiradi, shuningdek, tanqidiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Ayniqsa, maktab va kollej o'quvchilari uchun o'yin shaklidagi tarixiy dars sifatida juda foydalidir. Unda ishtirokchilar fagaqt faktlarni eslab qolish emas, balki ularni mantiqiy bog'lay olish, tarixiy jarayonlarni tushunishga harakat qilishadi. Tarixiy shaxslar orasida Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ibn Sino, Beruniy, Ulug'bek kabi buyuk zotlar tez-tez tilga olinadi, ammo o'yin mavzusi turli davrlar va geografik hududlarni qamrab olgan holda kengaytirilishi mumkin. Bu esa o'yinni yanada qiziqarli va rang-barang qiladi. Shu tariqa, "Kim menman?" o'yini nafaqat tarixiy bilimlarni mustahkamlovchi vosita, balki ijodkorlik va tafakkurni charxlaydigan samarali ta'limiy metod sifatida ham xizmat qiladi.

Xulosa

Tarixiy tafakkur inson tafakkurining eng muhim ko'rinishlaridan biri bo'lib, u orgali shaxs o'tmish voqealari, tarixiy jarayonlar va tarixiy shaxslar faoliyatini anglaydi, ularni hozirgi zamon bilan bog'lab, kelajak haqida mulohaza yurita oladi. Mazkur maqolada ko'rib chiqilgan o'yin texnologiyalarining tarixiy tafakkurni shakllantirishdagi ahamiyati, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun nihoyatda dolzarbdir. Zamonaivy pedagogika fanida o'yin asosidagi yondashuvlar shaxsni har tomonlama rivojlantirish, o'quvchini ta'lif jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, uning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida e'tirof etilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Tarixiy jumboqlar" Tarixiy detektiv "Tarix sahnasida" "Vaqt chizig'i" va "Kim menman?" kabi o'yin shaklidagi metodlar o'quvchilarda nafaqat tarixiy bilimlarni singdiradi, balki ularda analistik tafakkur, tarixiy empatiya, tanqidiy yondashuv va muloqot madaniyatini ham shakllantiradi. Bu o'yinlar orqali o'quvchi tarixiy voqealarni jonli tarzda tasavvur qiladi, ularni o'z hayoti va hozirgi zamon bilan bog'lab tahlil qiladi, bu esa tarixiy tafakkurning asosi hisoblanadi. Pedagogik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, o'yin texnologiyalaridan foydalanan darsning samaradorligini oshiradi, o'quvchilarda fanga nisbatan ijobji munosabat va qiziqishni shakllantiradi, ularning eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi. Bu borada zamonaivy ta'lif nazariyalaridan biri bo'lgan konstruktivizm tamoyillariga mos yondashuv – ya'ni bilimni faol, tajriba orqali o'zlashtirish – o'yin texnologiyalari bilan uyg'unlashadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lif bosqichida bu kabi interfaol yondashuvlar bolaning kognitiv, ijtimoiy va emotsiyonal rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu asosda aytish mumkinki, o'yin texnologiyalarining tarixiy tafakkurni shakllantirishdagi roli zamonaivy ta'lif

tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – intellektual va ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalashda muhim metodik vosita bo'lib xizmat qiladi. Maqolada keltirilgan tajribalar va metodik tavsiyalar esa amaliyotchi o'qituvchilar uchun ilmiy-metodik asos sifatida foydalanan imkonini beradi. Kelgusida mazkur sohada olib boriladigan tadqiqotlar, metodik yondashuvlar va tajriba almashuvlari tarix fanining ta'limdagisi o'rmini mustahkamlash, shuningdek, o'quvchilarda tarixiy tafakkurni chuqurroq shakllantirish imkonini yanada kengaytiradi.

References

1. Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik". Toshkent. O'zbekiston. 2023. B-72.
2. Falsafa qisqacha izohli lug'at. Toshkent. SHarq. 2004. B-303
3. A.G'.Mixliyev "O'quvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirish". Darslik. Toshkent. 2012.
4. S.Qurbanova. "Didaktik o'yinlar". O'quv qo'llanma. Urgancha. 2011.